



“TASDIQLAYMAN”

**«O‘zbek geologiya qidiruv» AJ
Qizilqum MGQE
boshlig‘i**

E.E.Tursunov

2024 yil «22» noyabr

**Qizilqum MGQEda “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”
ga bag‘ishlangan davra suhbatlari yig‘ilish
BAYONI**

2024 yil 18 noyabr

Muruntau shaharchasi

Yig‘ilish raisi: Markaziy ekspeditsiya boshlig‘i E.E.Tursunov

Ma‘ruzachlar: Zarafshon shahar IIB 1-son IIB boshlig‘i mayor
M.A.Elmurodov, XPB profilaktik inspektori
T.X.Yusupov, mas‘ul M.Dilmurodov

Qatnashganlar: “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati
Qizilqum MGQE barcha bo‘lim boshliqlari va dala
ekspeditsiyalari boshliqlari, muhandis texnik xodimlar.
Jami 52 ta xodim.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning 2024-yil 28-oktabrdagi “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan seminar va davra suhbatlari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi 08-850-sonli faksogrammasi ijrosini ta‘minlash.

ESHITILDI:

«O‘zbek geologiya qidiruv» AJ Qizilqum MGQEda Korrupsiyaga qarshi mas‘ul shaxs M.Dilmurodov yig‘ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirib, masala bo‘yicha so‘zni markaziy ekspeditsiya boshlig‘i E.E.Tursunov boshlab berdi:

Yig‘ilish davomida birinchi o‘rinda korrupsiya o‘zi bu nima degan ibora to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tdi. **“Korrupsiya** - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish” deya so‘zi navbatida Korrupsiyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta to‘siq bo‘lishga bor e‘tiborini qaratish maqsadida barcha davlatlar hamkorlikda 2003-yil 09-dekabr kuni Meksikada BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi

imzolangan bo'lib va ushbu kun Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilinganligini to'g'risida aytib o'tdi.



Kun tartibidagi masala yuzasidan Zarafshon shahar IIB 1-son IIB boshlig'i mayor M.A.Elmurodov o'z fikrini bildirar ekan eng avvalo, shuni ta'kidlab o'tish joizki, korrupsiyaga qarshi kurashning sifat va son jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko'tarilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi mahsulidir. Jumladan, davlat rahbarining jamiyatni «halollik vaksinasi bilan emlash» zaruriyati haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarga qo'yilgan tamal toshi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Prezidentning 2020-yilning 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, «Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi» degan so'zlarini o'qib eshittirdi.



Seminar ishtirokchilariga «O‘zbek geologiya qidiruv» AJ Ichki nazorat bo‘limi tomonidan taqdim etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot roligi qo‘yib berildi.

Shundan so‘ng rahbar va muhandis texnik xodimlarga yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilinganligi haqida aytib o‘tilib ular to‘g‘risida ma‘lumot o‘qib eshittirildi.

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4761-son qarori
- Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 829-son qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori kabilar.




O'z navbatida yig'ilishda ishtirok etadigan barcha mas'ul rahbar va xodimlarga markaziy ekspeditsiyamizda yoki umuman qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar korruptsiya alomatlari sezilsa yoki guvohi bo'lishsa:

- bevosita markaziy ekspeditsiya boshlig'iga;
- ishonch telefon orqali -55-503-14-63;
- elektron pochta orqali info@uzgeo.uz;
- telegram bot kanali orqali @ichkinazoratbot;
- Jamiyatning to'g'ridan-to'g'ri Ichki nazorat bo'limiga (tel.: 95-505-99-00);

aloqaga chiqishlari mumkinligi qolaversa ularning shaxsga doir ma'lumotlari sir saqlanishi kafolatlanishi to'g'risida yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirildi hamda joylarga borib qo'l ostidagi ishchi xodimlarni xabardor qilishlari bo'yicha topshiriqlar berildi. Yig'ilish so'ngida savol-javob va muzokaralar olib borildi.

Yig'ilish kotibi



M.Dilmurodov